

Ne'matlarni asraylik!

Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası dotsentlari Adham Mamataliyev, Shavkat Botirov, Javlon Ishchanov va o'qituvchilar Shaxboz Mardiyev, Ilhom Urazboyev institutimizning 4-talabalar turar joyida yashovchi 1-kurs talabalari bilan "Ne'matlarni asraylik" mavzusida suhbat uyushtirdilar. Bu tadbirdan maqsad talabalar bilan turar joyidagi sharoitlar bo'yicha suhbatlashish, fikrlarini bilish va maslahatlar berishdan iborat edi. Tashkil qilingan suhbat kutilgandan ko'ra qiziqarliroq tus oldi.



Bugun yurtimizda kechayotgan shiddatli islohotlar natijasida yoshlarning bilim olishlari, har tomonlama yetuk bo'lib tarbiya topishlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan institutimiz talabalari uchun zamonaviy talablarga javob beradigan har tomonlama qulay bo'lgan shinam talabalar turar joylari ham talabalar ixtiyorida. Ammo o'z navbatida yoshlarga bo'lgan bunday e'tiborga nisbatan ular tomonidan qanday munosabatda bo'lishlari ham muhim hisoblanadi. Talabalar bunga javoban, yaxshi o'qishlari, jamoat ishlarida faolliklari bilan birgalikda jamoat mulki bo'lgan turar joy inventarlari, jihozlari, mebellari va boshqa moddiy boyliklariga zarar yetkazmasdan avaylab-asrab foydalanishlari lozim.



Tadbir davomida yurtimizda talaba-yoshlar uchun katta imkoniyat eshiklari ochilayotganligi va bundan samarli foydalanish kerakligi to'g'risida fikrlar, ham ustozlar, ham talabalar tomonidan aytib o'tildi. Shu bilan birgalikda talabalar turar joyning sharoit va imkoniyatlaridan juda ham mamnun ekanliklarini va buning uchun institut rahbariyatidan minnatdor ekanliklarini ma'lum qildilar. Uchrashuvda talabalar tomonidan "turar joydagi barcha moddiy boyliklarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularning qadriga yetish, shu aziz va muqaddas Vatanga munosib bo'lish eng asosiy burchimiz deb hisoblaymiz" degan fikrlar ilgari surildi.

TIQXMMI matbuot xizmati